

**BOJXONA TO‘LOVLARIDAN QARZDORLIKNI KELIB CHIQISHI
BORASIDAGI XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBASI VA O‘ZARO
HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.**

A.A.Shadmankulov

*Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrası
boshlig‘i, i.f.n. dotsent., b.x. podpolkovnigi.*

Jo‘raboyev Muhammadbobur Faxriddin o‘gli

bojxona instituti 4-kurs kursanti.

e-mail: muhammadboburjuraboev0@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlaridan qarzdorliklarni kelib chiqish borasidagi xorijiy davlatlarning jumladan Argentina va Ozarbayjonning tajribasi va o‘zaro hamkorlik istiqbollari tahlil qilingan. Ushbu tahlillar asosida taklif va tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *bojxona to‘lovlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro standartlar, optimallashtirish.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda tovarlar harakatini tezlashtirish maqsadida xavfni boshqarish tizimini qo‘llash natijasida rasmiylashtiruv vaqti qisqardi. Natijada, tadbirkorlar tomonidan ko‘proq foyda olish maqsadida har xil qing‘ir yo‘llar bilan, ya‘ni tovarlarni qiymatini, TIF TN kodini o‘zgartirish hamda imtiyozlardan noto‘g‘ri foydalanish holatlari ko‘paydi. Bular esa bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sanalib qoldi. Va bu borada xalqaro jahon tajribasini mamlakatimizda qo‘llashni taqozo etdi. Bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni kelib chiqishini oldini olishda har bir davlat o‘ziga xos usullardan foydalanishidan kelib chiqib, quyida misol tariqasida Argentina va Ozarbayjon davlatlari tajribasini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Argentina tajribasi

Ushbu davlatda joriy jarayon hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan qo‘shimcha tarzda import/eksport bojlari joriy etish, elektron xabarnomalar yuborish va o‘zgartirishlar kiritish bilan shug‘ullanuvchi “MALVINA IT System” (SIM) tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

Import yoki eksport deklaratsiyalari joriy o‘rganish va tekshirishlar tugagandan so‘ng “EX Post Control System” tizimiga yuboriladi. Agar xato kamchiliklar mavjud bo‘lmasa,

o‘zgarasdan qolaveradi, agar xato va kamchiliklar aniqlansa tizim tomonidan deklarantga talabnoma avtomatik tarzda yuboradi.

Qarzdorlik to‘g‘risida ma‘lumot kiritilgan zahoti SIM identifikatori bilan birga dastur deklarantga qancha miqdorda qo‘shimcha to‘lov hisoblanganligi hamda penya miqdori bo‘yicha bir varaqlik bildirishnoma shaklini yuboradi. Ushbu bildirishnoma shakli elektron sertifikat shaklida bo‘lib, “Information System of Communications and Electronic Customs Notifications – SICNEA” tizimi orqali yuboriladi.

So‘ng deklarant o‘ziga kelgan talabnomani qabul qilish uchun 10 kun muddat beriladi. Bildirishnoma qabul qilingandan so‘ng, SIM dasturi avtomatik tarzda 10 ish kunlik muddatni hisoblab boradi. Ushbu vaqt davomida ushbu qiymatni qabul qilishi yoki bo‘lmasa o‘zgartirish kiritishni talab qilishi mumkin.

Birinchi holatda to‘lov qilinganlik to‘g‘risidagi ma‘lumot SIM tizimida ko‘ringandan so‘ng jarayon yakunlanadi.


Ikkinchi holatda, deklarant va bojxona o‘rtasida qarzdorlik summasi qayta hisoblanib, dastur bergan summadan farq qilgan paytda, dasturda “challenged” belgisi paydo bo‘lib qoladi va dastur uchun ushbu yangi summa amal qila boshlaydi.

Agar shunda ham 10 ish kunida zarar to‘lanmasa, ma‘lum qilingan muddat tugagandan 15 kun o‘tgach majburlov choralari ko‘rila boshlanadi. Oxirgi etaplarda, bojxona tovarlarni to‘xtatib turish huquqidan va tashkilot egasini yoki bo‘lmasa uning moliyaviy javobgar shaxslarini ma‘muriy javobgarlikka tortish huquqidan foydalanishadi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisi maqomidan ham ozod etilishgacha bo‘lgan jazo chorasini qo‘llashi mumkin.

Shu yo‘l bilan, tadbirkorlar kechiktirilgan to‘lov uchun qo‘shimcha penyadan hamda sudlanib tadbirkorlik huquqini yo‘qotishdan qo‘rqib bojxona qiymatini buzish holatlarini sodir etishdan qochishadi.

Ozərbayjon tajribasi

Ozərbayjon davlati 10 ta davlat bilan o‘zaro erkin savdo bitimi va Turkiya davlati bilan tovarlarni preferensial tarzda olib o‘tish bo‘yicha kelishuvi mavjud va o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘ygan.



Shuningdek ushbu davlatning Bojxona Kodeksini 258.1 bandiga asosan bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni kelib chiqishini oldini olish uchun tovarlarni quyidagi shartlar asosida erkin muomalaga chiqarish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan:

1. Depozit
2. Aval(veksel majburiyati)
3. Bank kafolati
4. Bojxona organlarining depozit hisobraqamiga pul o‘tkazmalar
5. Sug‘urta
6. Uchinchi tomonlar kafilligi
7. Oldindan to‘lov

Yuqoridagi usullardan biridan foydalanib bojxona to‘lovlarini ta‘minlasa, bojxona organlari tomonidan bojxona to‘lovlarini 14 kundan 60 kungacha kechiktirib to‘lashga ham imkoniyat taqdim etadi. Bundan tashqari agar bojxona to‘lovlari noto‘g‘ri hisoblangan holati aniqlanib qarzdorlik holati kelib chiqqan hollarda, bojxona organlarining ta‘minlovga summasidan kesib olish huquqi mavjud. Ushbu holatda tadbirkor debitor qarzdor hisoblanib qoladi.


Agar bojxona organlari qarzdorlikni tadbirkor tanlagan usulda undirib olishni iloji borligiga shubhasi bo‘lsa, bojxona organlari xuddi shunday ta‘minlov turidan boshqasini tanlashni talab qilish huquqi mavjud.

Ozarbayjon tajribasiga asosan tovarlarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirgandagina ta‘minlov usullaridan foydalanish majburiy hisoblanmaydi.

Ushbu davlatning o‘ziga xos jihati agar bojxona to‘lovlaridan qarzidorlik kelib chiqqan taqdirda ham o‘z vaqtida undirib olish chorasini ko‘rib qo‘yganligidadir.

Xalqaro hamkorlik doirasida

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash va noqonuniy tovar aylanishini oldini olish maqsadida 8ta davlat bilan hamda 1 ta tashkilot bilan bojxona qo‘mitasi o‘rtasida elektron axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.



Axborot almashish tizimining samarasi natijasi sifatida Toshkent shahar bojxona boshqarmasi tomonidan 2022-yilda yuborilgan xalqaro so‘rovnomalarning javob xatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarini ko‘rishimiz mumkin:

2022-yil davomida Toshkent shahar bojxona boshqarmasi tomonidan jami **95 ta** so‘rovnoma yuborilgan bo‘lib, shundan **84 tasiga** javob qaytarilgan hamda **60 ta** holatda tafovut mavjudligi aniqlanib **32,1 mlrd so‘m** miqdorida qo‘shimcha to‘lov hisoblangan¹.

2-rasm. 2022-yil davomida qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari (Toshkent shahar bojxona boshqarmasi kesimida)

Toshkent shahar bojxona boshqarmasi tomonidan 2022-yil davomida jami **58,4 mlrd so‘m** miqdorda bojxona to‘lovlaridan qarzidorlik kelib chiqqan. Bundan shu kelib chiqadiki so‘rovnomalar orqali olingan ma‘lumotlar asosida aniqlangan kamomadlar jamiga nisbatan **55%ini** tashkil etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bojxona to‘lovlaridan qarzidorlikni kelib chiqishini oldini olish borasida xalqaro tajribalarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki: Ozarbayjon tajribasidan biz tovarlarni bojxona rejimlarida rasmiylashtirishda bojxona ta‘minlov turlaridan birini qo‘llash. Argentina tajribasidan esa bojxona to‘lovlaridan qarzidorlik kelib chiqqandan so‘ng uni nazorat qilish mexanizmini hamda ushbu holatlarni

¹ Toshkent shahar bojxona boshqarmasi “Daromadlar va bojxona statistikasi bo‘limi” ma‘lumotlariga asosan.

sodir etganda tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlarini o‘zimizga joriy etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasida yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan davlatlar bilan ya’ni: Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya va Hindiston davlatlari bilan o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ochiq bo‘lishiga hamda sog‘lom raqobatni shakllantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon bojxona tashkiloti 2021-yildagi “Debt Management in Customs Administrations” mavzusidagi to‘lov paketi dasturi.
2. T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov “Bojxona tariflari va to‘lovlari”, Darslik// - Toshkent: “Tafakkur qanoti” 2017-yil
3. S.Gulyamov, Z.Makkamov, T.Pardayev, “Qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish choralari”, uslubiy qo‘llanma. T.: OHBI, 2016-y
4. Toshkent shahar bojxona boshqarmasi “Daromadlar va bojxona statistikasi bo‘limi” ma’lumotlariga asosan.